

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

PSIXOLOGIYADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MUAMMOSINING O'RGANILGANLIK HOLATI

Каримов Мансур Сапарбоевич

Осиё халқаро университети Педагогика ва
психология мутахассислиги 1 курс магистранти

Shaxslararo munosabatlar insoniyat hayot faoliyatining zarur sharti bo'lib, shaxsning etuk inson sifatida shakllanishida, uning psixik funksiyalari, jarayonlari, psixik xususiyatlar rivojlanishidagi ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, bolaning psixik taraqqiyotida uning tengdoshlari bilan o'zaro munosabati va muloqotining ta'sirini hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Bolalik davrida tengdoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhimligini amerikalik mashhur bolalar vrachi Benjamin Spok ham ko'rsatib bergan. Uning fikricha, katta yoshdagi kishining oilada, ishda hamkorlik qila olishi boshqalar bilan qanchalik chiqishib ketishi, shu kishining bolalik chog'ida tengqurlari, boshqa bolalar bilan qanchalik hamkorlik qilgani, chiqishib o'ynaganiga bog'liq.

Bolada atrofdegilar, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga kuchli ehtiyoj mavjud bo'lib, bu munosabatlar yordamida bola muhim hayotiy tajribaga ega bo'ladi, atrof-olam, voqelik, jamiyat haqida bilim to'playdi, o'zini tengdoshlari bilan taqqoslash natijasida o'ziga va boshqalarga baho berishga o'rganadi. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarda bola o'zining psixik qiyofasini guyoki «ko'zgu»da aks ettiradi, o'zaro munosabatlarda bola jamoada yashashga o'rganadi.

O'quvchilarning dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'zaro munosabatlarning qanday kechishi, sinf jamoasining ta'lim va tarbiyasida o'ta muhim rol o'ynashi V.A. Suxolisnkiy, A.V.Mudrik (29), S.V.Kondrativ, L.I.Novikovlarning (34) izlanishlarida o'z aksini topgan.

Mashhur rus pedagogi V.A. Suxolisnkiy o'z asarlarida bolalar jamoasini shakllantirish, bola shaxsini rivojlantirish, bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning taraqqiyotiga katta e'tibor bergan. V.A. Suxolisnkiy bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ko'p qirrali va to'la qonli bo'lishi uchun ularni boshlang'ich sinflardan boshlab jamoa bo'lib mehnat qilish, o'quv va boshqa faoliyatlarda davomida bir-biriga yordam berishga o'rgatish ijobiy samara berishini ta'kidlaydi. Bunda o'quvchilarning birgalikdagi tabiat

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qo‘yniga sayohatlari, birgalikda qiziqarli kitob o‘qishlari, birga qo‘shiq kuylashlari va birga o‘ynashlari ularni bir-birlariga yaqinlashtirishi, muloqotini boy qilishini unutmaslik lozim.

A.V. Mudrik (29) turli yoshdagi maktab o‘quvchilarining o‘zaro muloqoti hamda muloqot turlarining tavsifnomasini tuzish bilan muloqot va munosabatlarning jamoani, o‘quvchi shaxsini shakllantirishning pedagogik yo‘nalishlarini ko‘rsatib beradi. Tadqiqotchi o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari va muloqotlarining rivojlanishida har bir yosh bosqichi uchun alohida o‘tkaziladigan pedagogik tadbirlarning shakli va uslublari haqida fikr yuritadi. Lekin jamoa a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, bu munosabatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardagi munosabatlarga va uning o‘ziga xos xususiyatlariga kam e‘tibor beriladi.

L.I. Novikovning (34) monografiyasida o‘quvchi shaxsini sinf jamoasi ta‘siri bilan tarbiyalash imkoniyatlari, jamoaning tarbiyadagi roli haqida fikr yuritilgan bo‘lib, sinf jamoasi yaxlit tizim sifatida, uning maqsad va vazifalari, ya‘ni ijtimoiy va tarbiyaviy vazifalari hamda sinf jamoasini boshqarishning optimal yo‘nalishlari bayon qilingan. Ammo tadqiqotchi shaxslararo munosabatning ko‘proq nazariya tomoniga e‘tibor qaratib, masalaning amaliyot jihatlarini yoritib bermagan.

B.F. Lomov bilish jarayonida muloqot va munosabatning ahamiyatini ko‘rsatib, bu jarayon “sub’ekt-ob’ekt” darajasida emas, balki “sub’ekt-sub’ekt” darajasida amalga oshganda yuqori samara berishiga diqqatni qaratadi. B, F, Lomov rahbarligida o‘tkazilgan tadqiqotlarda shaxslararo munosabat va muloqotning bilish jarayonini kuchaytirishiga sabab topshiriqlarni bajarish davomida tekshiruvchilarning o‘zaro ma‘lumot almashishlari, faoliyatga birgalikda reja tuzishlari hamda bir-birlarini nazorat qilib borishlari ekanligi aniqlandi. Bunday o‘zaro xamkorlik natijasida so‘zlarni xotirada ixtiyoriy eslab qolish 97%ga, sonlarni eslab qolish 78% ga o‘sgan.

Ya.L. Kolominskiy (22) o‘quvchilar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tizimini asosan sotsiolatriya usuli bilan turli muhit sharoitida (sinfda, sinfdan tashqarida, maktabdan tashqari faoliyatlarda) tekshirgan. Shaxslararo munosabatlarda har bir shaxs bir yoki bir necha rollarni bajaradi. Yuzaki qaraganda buni aniqlash ancha murakkab, faqat jamoada o‘tkazilgan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

maxsus tekshirishlar yordamida guruxdagi “rad etilgan”, “yakkalanib qolganlar”ni aniqlash mumkin.

O‘quvchilar jamoasida “rad etilgan” va “yakkalanib qolganlar” toifasiga kirgan o‘quvchilar ham aslida tengdoshlari bilan doimo muloqotda bo‘ladilar. Tekshirishlar natijalarini chuqur taxlil qilish faqat ushbu o‘quvchilar birinchidan, o‘zlari istagan tengdoshlari bilan muloqot va munosabatlarga kirisha olmasligi; ikkinchidan, muloqot tashabbusi, faqat “izolyasiyadagi” o‘quvchidan chiqishini ko‘rsatadi. Bunda ikkala vaziyat ham bola shaxsining barkamol shakllanishiga salbiy ta’sir etadi.

A.A. Bodalevning fikricha, kishilar jamoa bo‘lib mehnat qilishlari, ta’lim olishlari, san’atda, ommaviy axborot vositalarida faoliyat ko‘rsatishlari uchun bir-birlariga ehtiyoj sezadilar va bunga intiladilar.

Lekin faoliyat davomida ba’zilar hamkorlik, ba’zilar musobaqa, ba’zilar beparvolik, boshqalar esa qarshilik munosabatlarini namoyon qiladilar. Jamoa normal faoliyat ko‘rsatishi uchun esa jamoada psixologik vaziyat osoyishta, hamjihatlik, do‘stlik va bir-biriga nisbatan hayrixoxlik zarur. Jamoada bunday iqlimni tashkil etish uchun sinfda o‘qituvchining pedagogik mahorati, ishlab chiqarishda rahbarlarning boshqaruv san’ati, qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi. Lekin bu omillar har doim ham hal qiluvchi rol o‘ynamasligi mumkin.

Kishini kishi tomonidan shaxs sifatida idrok etilganda, shaxs boshqa shaxsni sub’ekt sifatida o‘rganganda (boshqa shaxsga ob’ekt sifatida qaraganda) boshqa shaxsga nisbatan qiziqish, befarqlik yoki nafrat hissini sezishi mumkin (A.A.Bodalev. 22). Sub’ekt sifatida u o‘z oldiga ma’lum vazifalar qo‘yadi va o‘z fikrini hamsuxbatga o‘tkazish uchun muloqot jarayoniga ta’sir etishga, uni boshqarishga harakat qiladi. Bir vaqtning o‘zida bu shaxs o‘zi bilan munosabatda bo‘layotgan kishiga nisbatan bilish-o‘rganish ob’ekti hisoblanadi, ya’ni munosabatlar vaqtida kimningdir ta’siri ostida bo‘ladi.

L.I.Umanskiy tomonidan kommunikativ tayyorgarlikning 3 ta yo‘nalishi ajartib ko‘rsatilgan. Bular:

1. Intellektual kommunikativlik – bu shaxslararo bir-birini idrok etish va bir-birini tushunish jarayoni.
2. Hissiy kommunikativlik – bu shaxslararo aloqada his-tuyg‘u va guruxda yuqori hissiy kayfiyatning mavjud bo‘lishi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3. Irodaviy kommunikativlik – bu guruxning qiyinchiliklarga chidamliligi, streslarga qarshi tura olishi va ekstremal vaziyatlarda ishonchliligi.

L.I.Umanskiy tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, guruh a‘zolari guruh faoliyati uchun eng zarur sifat «lider» tanlash va bu liderning jamoani boshqara olish qobiliyati ekanligini tushunadilar. Guruhning samarali faoliyati uchun u avvalombor jamoa a‘zolari o‘rtasida hamjihatlik va etarli darajada ichki faollik zarur.

So‘ngi yillarda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabat va muloqotni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa malaka, ko‘nikma va tajribaning asosan maktabgacha yoshda o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq.

T.A.Repina va R.B. Starkina tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, agar oilada bolaning tarbiyasi bilan shug‘ullanadiganlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, bola shuncha bosiq, atrofdagilar bilan tezda chiqishib ketadigan, mehribon bo‘ladi. Shuningdek, agar oila a‘zolari bola tarbiyasiga yondashish masalasida xamfikir bo‘lsalar, bunday oilada o‘sgan bola mehnatsevar, intizomli bo‘ladi, lekin ko‘pincha kattalarning yordamiga muhtoj va mustaqil faoliyat ko‘rsatishga kam intiladi.

Shaxslararo munosabat va muloqot soxasidagi ilmiy tadqiqotlar ichida Ya.L.Kolominskiy ishlari alohida o‘rinni egallaydi. Ya.L. Kolominskiy o‘z asarlarida «Munosabat» va «Muloqot» tushunchalarini farqlash masalasiga e‘tibor qaratadi. Muallifning fikricha, bu ikki tushunchani farqlash psixologiya va pedagogikada «strategik» ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsning o‘zaro munosabatlarini o‘zgartirish bilan muloqotni boshqarish mumkin.

O‘quv jamoalarida o‘zaro munosabatlar, uni shakllantirish, bu jarayonda o‘qituvchining roli keng o‘rganilgan tadqiqotlar O‘zbekistonda professor M.G. Davletshin raxbarligida bajarildi.

M.G. Davletshin jamoa va guruhlarda shaxslararo munosabatlarni o‘rganish stratometriya konsepsiyasi asosida olib borilgandagina haqiqiy natijalarga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. «Guruhij jarayonlarda shaxslararo munosabat va bu munosabatlarning mazmuni, motivlari, guruh qadriyatlar va normasi etakchi rol o‘ynaydi, - deb ko‘rsatadi.

M.G. Davletshin. Jamoadagi bunday munosabatlarga «jamoaning o‘z-o‘zini aniqlashi», «qadriyatlar yo‘nalishi birligi», «guruhga ta’si etuvchi xissiy



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th August, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

identifikatsiya» va shaxslararo munosabatlar tizimidagi tanlov motivlarining yadrosini kiritish mumkin (39).

F.S.Ismagilova tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quvchi va talabalar jamoasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlar va muloqot salbiy tus olmasligi uchun guruhlarda doimo o'quv-ishbilarmonlik o'yinlari va bahslar o'tkazish bilan jamoa a'zolari orasidagi har qanday muammoni birgalikda hal qilishga o'rgatish mumkin.

E.N. Sattorov tadqiqotlari asosan, pedagogik amaliyot jarayonida sinf tarkibini har xil uslublar bilan tekshirish, o'quvchilar jamoasidagi o'zaro munosabatlarga gnostik, tashkilotchilik, kommunikativ bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan qanchalik o'zlashtirishlarini aniqlashga yo'naltirilgan.

T.Hamroqulov va Z.M.Muratxonovalar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotida o'quvchi shaxsiga hurmat, o'zini uning o'rniga qo'ya olish, o'z his-tuyg'usini boshqara olish zarurligini, shuningdek, «a'lo» va «yaxshi» baholar bilan o'qiyotgan o'quvchilar tengdoshlari orasida eng ko'p hurmat va e'tiborga ega ekanligini ko'rsatadilar.

Professor R.Z.Gaynutdinov talabalar guruhlarda muloqotning o'ziga xos tomonlarini o'rganar ekan, tajribalarda boshlang'ich kurslardan boshlab kasbiy muloqot malakalarini egallashning axamiyatini ko'rsatib o'tadi. G.Z.Gaynutdinov ilmiy tadqiqotlarda ko'pchilik o'qituvchilarning ongida eski stereotiplar o'z kasbi haqida noto'g'ri fikrlar mavjudligi, tekshirishlarda faqat 69 foiz o'qituvchilargina maktabdagi o'zgarishlarni, yangilikni qabul qilishga tayyor ekanligini, qolganlar hali «bilish konservatizmi» asiri ekanligi aniqlangan. Tadqiqotchining takidlashicha zamonaviy o'qituvchi maktabdagi yangililarni qabul qilishga har tomonlama tayyor bo'lishi, dars jarayonida o'qituvchilar bilan xamkorlik qila olishi muximdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Izd.MGU. -2000
2. Bodalev A.A. Vospriyatie i ponimanie cheloveka chelovekom. –M.: 1982-200 s.
3. Bojovich L.I. Lichnost i eyo formirovanie v detskom vozraste. g'M., 1968. (Formirovanie lichnosti v mladshem shkolnom vozraste: 247-292.)
4. Vigotskiy L.S. Sobr.soch.-M., 1983. T. 3.
5. Gaynutdinov R.Z.Lichnostnie determinonti uchitelya v ego vzaimootnosheniyax s uchashimisyax. Sb.: Psixologiya vzaimootnosheniy uchashixsya vuchebnix kollektivax. T. 1989. 61 b.

